

Qabul qilindi: 05.11.2024

Chop etildi: 28.12.2024

UDK:378.4

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA TOPISHMOQ VA MAQOLLARDAN FOYDALANISH USULLARI

¹Matsaidova Sayyora Xudayberganovna

Urganch davlat universiteti

P.f.n., dotsent

²Madrimova Madinabonu Otabek qizi

Urganch davlat universiteti, talaba

МЕТОДЫ ПОИСКА И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОСЛОВИЙ В ОБРАЗОВАНИИ ГЕОГРАФИИ

¹Матсаидова Сайёра Худайбергановна

Урганческий государственный университет

к.п.н., доцент

²Мадримова Мадинабону Отабек кизи

Ургенчский государственный университет, Студент

METHODS OF SEARCHING AND USING TERMS IN GEOGRAPHY EDUCATION

¹Matsaidova Sayyora Khudayberganovna

Urgan State University

Ph.D., Associate Professor

Madrimova is the daughter of Madinabonu Otabek.

Urgench State University

Student



1

<https://orcid.org/0009-0002-4461-6176>



2

<https://orcid.org/0009-0009-3730-1484>

Annotatsiya: Mazkur maqolada geografiya ta'limida topishmoq va maqollardan foydalanish usullari yoritilgan. Ushbu metodlarning ta'lim jarayonidagi o'rni, shuningdek, ularning o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Topishmoqlar va maqollar, an'anaviy o'quv metodlaridan farqli o'laroq, o'quvchilarni faollashtiradi va ularning qiziqishini oshiradi. Maqolada bu metodlarning samaradorligi va o'qituvchilar tomonidan qanday ishlatilishi bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: geografiya, ta'lim, topishmoq, maqollar, o'quv metodlari, o'qituvchilar, fikrlash, ta'lim samaradorligi.

Аннотация: В статье рассматриваются способы использования загадок и пословиц в обучении географии. Рассматривается роль этих методов в образовательном процессе, а также их значение для развития мышления учащихся. Загадки и пословицы, в отличие от традиционных методов обучения, активизируют учащихся и повышают их интерес. В статье даются рекомендации по эффективному использованию этих методов преподавателями.

Ключевые слова: география, образование, загадки, пословицы, методы обучения, учителя, мышление, эффективность образования.

Abstract: This article discusses the use of riddles and proverbs in geography education. It examines the role of these methods in the educational process and their importance in developing students' thinking abilities. Unlike traditional teaching methods, riddles and proverbs engage students and increase their interest. The article provides recommendations for teachers on how to effectively incorporate these methods into their lessons.

Key words: geography, education, riddles, proverbs, teaching methods, teachers, thinking, educational effectiveness.

KIRISH. Geografiya ta'limida yangicha metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda va ularni yanada faol qatnashishga undashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada topishmoq va maqollarning geografiya darslarida qo'llanilishi o'rganiladi. Bu metodlar nafaqat o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, balki ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Maqolada ushbu metodlarning o'qituvchilar tomonidan qanday samarali qo'llanishi, shuningdek, o'quvchilarda geografik bilimlarni yanada chuqurlashtirishda qanday yordam berishi haqida tavsiyalar beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Geografiya ta'limida turli pedagogik metodlardan foydalanishning samaradorligini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, topishmoq va maqollardan foydalanish o'quvchilarning faoliyatini oshiradi va ularning ta'limga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. O'quvchilarni yangi bilimlarga qiziqtirish uchun turli xil usullar, shu jumladan, topishmoq va maqollarni qo'llash, o'qituvchilar uchun muhim vosita hisoblanadi [2].

Topishmoqlar o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undash orqali ular uchun bilim olish jarayonini qiziqarli va hayajonli qiladi. Masalan, geografiya fanidagi atamalarni yoki tushunchalarni topishmoq shaklida taqdim etish, o'quvchilarda yangi ma'lumotlarga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Masalan:

Unga o'simliklar yuzini burar,
Qumursqalar inin og`zin qurar,
“Avstraliya” - so`zi unga taqalar,
Bu tomonning nomi qanday atalar? (Janubiy)

Nemischadan qilsang tarjima,
“Qanot” degan ma’no anglatar.
Shamol yo’nalishin ko’rsatib,
Gorizontal rumbda aks etar.
(Flyuger)

Tongda shudring, tuman inmadi,
Kechga borib, shamol tinmadi.
Qushlar pastlab uchib yurdilar
Ob-havodan darak berdilar? (Ob-havo ayniydi)

Yomg’ir, sertomchi
Nomini top-chi?
Bulut onasi,
U muz donasi. (Do’l) [4].

Maqollar esa, geografiya fanining tarixiy va madaniy jihatlarini o'quvchilarga oson va qiziqarli tarzda tushuntirishda samarali vosita bo'lishi mumkin. O'quvchilar maqollar orqali atrof-muhit, tabiat va insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshiroq anglaydilar. Binobrin, maqollar ham shaklan, ham mazmunan juda kam o'zgarishlarga uchrab, uzoq yashovchanlik xususiyatiga ega bo'ladilar. Har bir maqolning xalq orasida tarqalishi ham uning yaratilishi kabi sekinlik bilan amalga oshadi. Chunki muayyan maqolni qabul qilib oluvchi geografik muhit uni o'z sharoitida qaytadan sinovdan o'tkazib olgandan keyingina o'z mulkiga aylantiradi. Rus folklorshunosi V.P.Anikin ta'biri bilan aytgan, “Xalq tajribasida bo'lmagan narsa maqolda ham bo'lmaydi”. Xalq tajribasi esa asta –sekinlik bilan asrlar mobaynida to'planib boyib boradi [1,6].

Ulug' rus yozuvchisi L.N.Tolstoy maqollarning xalq hayoti, ruhiy dunyosi bilan naqadar yaqin ekanligi haqida to'xtalib: “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko'raman”,- deb yozgan edi [3].

Arpa qayerda pishsa,
Chumchuq o'sha yerda.
Asad kirsu suv oqaradi.
Asad suvi asal suvi.

Asadda oralab ye,
Sumbulada saralab.

Achchiq yutish tog' yutish.

Ayamajuz olti kun,
Qahri kelsa, qatti kun.

Bahor kelsa suv toshar
Mehnat ham haddan oshar

Bahorgi beg'amlik kuzgi- pushaymonlik

Belni peshlagan bilar,
Yerni ishlagan

Davl kirdi- davr kirdi

Davl kirdi, ekinlarga davr kirdi

Daroyi ola bo'ldi,

Daryo bir balo bo'ldi.

Oz bo'lmay yoz bo'lmas
Yoz bo'lmay maz bo'lmas.

Ola bulut- balo bulut.

Oy yulduz ko'kning ko'rki
Qiz bola –elning.

Oy suluvi- nur,
Soy suluvi- suv [3].

Geografiya darslari nafaqat geografik bilimi oshirish, balki milliy qadriyatlarimizni asrashda ham muhim rol o'ynaydi. Topishmoq va maqollar – bu xalqimizning donoligini, urf-odatlarini va madaniyatini aks ettiruvchi qudratli vositalardir. Ular quyidagi jihatlarida ahamiyat kasb etadi: Maqollar va topishmoqlar xalqimizning tarixiy-madaniy qadriyatlarini saqlovchi vositalardir.

Topishmoq va maqollar orqali geografiyaga doir tushunchalarni osonroq anglash mumkin. Dars jarayonini qiziqarli va interaktiv tarzda olib borishga yordam beradi. Bu usul o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi va ta'lim samaradorligini oshiradi. Topishmoqlar orqali hayotiy tajribalarni, ayniqsa, geografik bilimlarni yanada boyitish mumkin. O'quvchilar muammolarni hal qiladigan qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Shu boisdan, geografiya darslarida topishmoq va maqollardan foydalanish muhimdir, bu nafaqat o'quv jarayonini jonlantiradi, balki yurtimizning yuksak qadriyatlarini asrashga yordam beradi.

Topishmoq va maqollar o'quv materiallarini yodlashni osonlashtiradi. Ular vizual va auditoriy vositalardan foydalanish orqali xotirani mustahkamlashga yordam beradi. Har bir mintaqaning o'ziga xos topishmoqlari va maqollar mavjud bo'lib, ular o'quvchilarni turli madaniyatlar bilan tanishtiradi. Darsimizning boshlanishida topishmoq berish: Bu o'quvchilarni darsga tayyorlash va ularning e'tiborini jalb qilish uchun yaxshi usuldir. Geografik obyektlarni tasvirlash uchun maqollar va topishmoqlardan foydalanish: Masalan, "Tog'lar baland, daryolar chuqur" degan maqol bilan tog'lar va daryolar haqidagi bilimlarni mustahkamlash mumkin. Topishmoq va maqollar asosida o'yinlar va musobaqalar tashkil qilish o'quvchilarning geografik bilimlarini sinab ko'rish va ularning ishtirokini oshirish imkonini beradi [5].

MUHOKAMA. Geografiya ta'limida topishmoq va maqollardan foydalanish metodlari nafaqat o'quvchilarning bilimlarini oshirishga, balki ularning mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Bu metodlar yordamida o'quvchilar faollashadi, darsga bo'lgan qiziqishlari ortadi va ta'lim jarayonida yanada muvaffaqiyatli bo'lishadi. Bundan tashqari, bu usullar o'qituvchilarga o'z darslarini yanada interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi.

Topishmoq va maqollardan foydalanishda o'qituvchilar, shuningdek, o'quvchilarga o'zlarining mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishga yordam berishlari kerak. Bu metodlar o'quvchilarni to'g'ri javob topishga, mantiqiy zanjirlarni tuzishga undaydi, bu esa ularning geografiya faniga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

NATIJALAR. Topishmoq va maqollardan foydalanish geografiya darslarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. O'quvchilar o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashni, mantiqiy fikrlashni va tanqidiy yondashishni o'rganadilar. Ushbu metodlar yordamida o'quvchilarning geosiyosiy, ekologik va ijtimoiy tafakkurlari rivojlanadi va ular ta'lim jarayonida yanada faol qatnashadilar.

XULOSA. Geografiya ta'limida topishmoq va maqollardan foydalanish usullari o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu metodlar o'quvchilarda geografik tushunchalarni mustahkamlash, o'z fikrini ifodalash va amaliy bilimlarni oshirishga yordam beradi. O'qituvchilar ushbu metodlarni qo'llash orqali darslarni yanada interaktiv va qiziqarli qilishlari mumkin.

REFERENCES:

1. Ahmad Sharifzoda. Yoshligim oqqush.- Toshkent: Istiqloq.- 2011.
2. Tashmuhamedova, G. Topishmoqlar va maqollarning ta'limdagi o'рни. Ta'lim va jamiyat, 2020 y. 12(4), 23-30.
3. Mirzaev, T. Maqollar va topishmoqlar – geografiya ta'limida. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, 2021-y. 7, 32-36.
4. Мавжутов Д. Географик топишмоқлар. – Т.: Мехнат, 2001.
5. Karimov, F. Geografiya va madaniyat: maqollardan foydalanish. O'zbekiston pedagogik tadqiqotlar jurnali, 2023-y. 25(2), 77-81.
6. Xalq maqollari to'plami. 2023y. www.maqollar.uz